

## Ommaviy oferta

### **“ELEVEN” savdo belgisiga ega gazlanmagan ichimlik suvini etkazib berish to’g’risida**

Jizzax viloyati

Sh. Rashidov tumani

Mazkur hujjat “ELEVEN” savdo belgisiga ega, bundan keyin “Suv” deb ataladigan tabiiy ichimlik suvini yetkazib berish yuzasidan O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, jumladan Fuqarolik Kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi 2-qismiga muvofiq to’liq layoqati bor jismoniy shaxslar cheksiz doirasiga xizmatlarni ko’rsatish shartnomasini (keyingi o’rinlarda – Shartnoma) tuzishga “ELEVEN BOTTLERS” MChJ ning rasmiy taklifi (ommaviy ofertasiga) bo’lib hisoblanadi.

Buyurtmachi tomonidan ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilgan harakatlarning bajarilishi uning quyidagi shartlarda so’zsiz roziliginibildiradi (Ommaviy ofertani qabul qilish (akseptlash)) Ommaviy oferta qabul qilingan paytdan boshlab Shartnoma tuzilgan deb tan olinadi.

Shartnomada bevosita nazarda tutilmagan barcha masalalarda tomonlar O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga bo’ysinadilar.

#### **Atamalar va tushunchalar**

**Kompaniya** – “ELEVEN” savdo belgisiga ega, bundan keyin “Suv” deb ataladigan tabiiy ichimlik suvini yetkazib beruvchi “ELEVEN BOTTLERS” ma’suliysi cheklangan jamiyat.

**Buyurtmachi** – ushbu Ommaviy ofertada ko’zda tutilgan harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan “ELEVEN” savdo belgisiga ega, bundan keyin “Suv” deb ataladigan tabiiy ichimlik suvidan foydalinish maqsadida Kompaniya tomonidan ishlab chiqarilgan maxsus dasturlardan ro’yxatdan o’tib, Mahsulotni sotib olish niyatidagi va Kompaniya tomonidan ishlab chiqarilgan yoki sotuvga qo’ylgan mahsulotlardan foydalangani uchun haq to’lashga tayyor bo’lgan jismoniy shaxs.

**Suv** - “ELEVEN” savdo belgisiga ega 18,9 litr hajmdagi kapsulalardagi gazlanmagan tabiiy ichimlik suvi.

**Polikarbonat butil** –ichimlik suvini saqlash uchun ishlatiladigan idishlar.

**18,9 litrli kapsula** – Polikarbonat xom-ashyosidan tayyorlangan ichimlik suvini saqlash uchun ishlatiladigan idishlar.

**Partiya** – bitta hisob-fakturadan foydalangan holda bir vaqtning o’zida Kompaniyadan Buyurtmachiga keladigan tovarlarning ma'lum bir qismi.

**Chegirmalar** – Kompaniya tomonidan o’rnatilgan hamda ishlab chiqarilgan shart va talablarga muvofiq jamlangan keshbek va/yoki ballar ko’rinishidagi bepul beriladigan mahsulotlar.

#### **1. Ommaviy oferta predmeti**

1.1. Ommaviy ofertaning predmeti – Buyurtmachining Kompaniyadan “Suv”ni naqd yoki naqd pulsiz to’lash sharti bilan sotib olish uchun to’lov qilish shartlari, talablari, javobgarligi va majburiyatlariga bo’lgan roziligi hisoblanadi.

1.2. Kompaniya Buyurtmachiga “ELEVEN” savdo belgisiga ega, bundan keyin “Suv” deb ataladigan tabiiy ichimlik suvini yetkazib beradi. “Suv” hajmi 18,9 litr bo’lgan polikarbonat materialidan tayyorlangan idishlarda beriladi.

1.3. Shartnomaning amal qilish muddati davomida “Suv” buyurtmachining dastlabki buyurtmalariga muvofiq alohida partiyalarda etkazib beriladi. Partiya deganda bitta hisob-fakturadan foydalangan holda bir vaqtning o’zida Kompaniyadan Buyurtmachiga keladigan tovarlarning ma'lum bir qismi tushuniladi.

1.4. “Suv” Buyurtmachiga shaxsiy iste’mol uchun beriladi (qayta sotish uchun emas).

#### **2. Narx va tomonlar o’rtasida hisob-kitob qilish tartibi**

2.1. “Suv” narxi QQS bilan birga bir dona butil uchun 17 500 (o’n yetti ming besh yuz) so’nni tashkil qiladi. Kompaniya o’z xizmatlari uchun narxlarni, lekin har chorakda bir martadan ko’p bo’lmagan holda, inflyatsiya darajasiga muvofiq yoki qonunchilikdagi o’zgarishlar natijasida Buyurtmachini majburiy ravishda xabardor qilish huquqini o’zida saqlab qoladi.

**2.2. Polikarbonat butil (kapsulasi) Kompaniyaning mulki bo'lib, keyinchalik maxsulotlar yetkazib berilgandan keyin Kompaniyaga majburiy qaytarilishi kerak.**

**Polikarbonat butil (kapsula) - qaytariladigan idishlardir.**

2.3. Buyurtmachi chegirma dasturiga muvofiq kalendar oy ichida yoki bir vaqtning o'zida buyurtma qilingan va to'langan 18,9 litrli "Suv" soniga qarab chegirmalarni olish huquqiga ega. Joriy davr uchun chegirma miqdori avvalgi kalendar oyi uchun amalda buyurtma qilingan va to'langan 18,9 litrli butil (kapsula) soniga qarab hisoblanadi.

Chegirmalar faqat Kompaniyaning ko'rsatilgan xizmatlar va etkazib berilgan maxsulotlar bo'yicha to'lanmagan to'lovlari bo'lмаган mijozlariga nisbatan qo'llaniladi.

2.4. Shartnoma bo'yicha to'lov tovarlarni etkazib berish vaqtida naqd va/yoki naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

**3. Yetkazib berish shartlari**

3.1. Kompaniya "Suv" ni mijozga kelishilgan jadvalga muvofiq kelishilgan miqdorda, ushbu Ommaviy ofertaning 3.3-bandida ko'rsatilgan yoki Buyurtmachining telefon/telegramm orqali ma'lum qilingan manzilga etkazib beradi. Taqdim etilgan "Suv" miqdori Kompaniya bilan oldindan kelishilgan holda, Buyurtmachining ehtiyojlariga qarab farq qilishi mumkin.

3.2. Buyurtmachi "Suv" miqdori va etkazib berish muddati bo'yicha barcha kelishuvlarni Kompaniya menejeri bilan tuzadi.

Buyurtmachi, shuningdek, "Suv" ga **+99855 151-00-11** yoki **+99833 110-00-11** telefon raqamlari orqali buyurtma berishi yoki etkazib berish kunidan oldingi kuni soat 16:00 dan kechiktirmay berilgan buyrtmalariga o'zgartirish kiritishi mumkin.

3.3. "Suv"ni yetkazib berish quyidagi manzilga amalga oshiriladi:

---

3.4. Kompaniya tomonidan sotuvga taklif etilayotgan suvdan foydalanish qulayligi uchun uskunalar (sovutgichlar, nasoslar va boshqalar), tegishli mahsulotlar (choy, kofe, bir marta ishlataladigan idishlar va boshqalar) faqat "Suv" yetkazib berish uchun buyurtma bilan birga, yoki tomonlarning kelishuviga binoan qo'shimcha haq evaziga yetkazib beriladi.

Sovutgichlarni sotish, ijaraga berish, etkazib berish va o'rnatish alohida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

**4. Tomonlarning javobgarliklari**

***4.1. Kompaniya quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:***

4.1.1. "Suv", asbob-uskunalar va tegishli mahsulotlarni Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan manzillarga Buyurtmachi bilan kelishilgan muddatlarda etkazib berish. Shuningdek, ushbu Ommaviy ofertaning 2.3-bandda ko'rsatilgan "Suv" narxi etkazib berish narxini ham o'z ichiga oladi. Ushbu shartlar Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan manzillar Jizzax shahri va Sharof Rashidov tumanida joylashgan bo'lsa amal qiladi. Boshqa hollarda, etkazib berish xarajatlari qo'shimcha ravishda muhokama qilinadi.

4.1.2. Buyurtmachining talabiga ko'ra "Suv"ning laboratoriya sinovlari natijalarini taqdim etish.

4.1.3. Buyurtmachidan bo'sh 18,9 litrli kapsulalarni olib ketish.

4.1.4. Sifatsiz mahsulotlarni almashtirish yoki Buyurtmachining iltimosiga binoan etkazib berilgan "Suv" bo'yicha to'lov summasini qaytarish.

***4.2. Buyurtmachi quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:***

4.2.1. Ushbu Ommaviy ofertaning 2.1-bandiga muvofiq olingan tovarlar va xizmatlar uchun haq to'lash.

4.2.2. Buyurtmalarni kelishuv (og'zaki/yozma)ga muvofiq qabul qilishni ta'minlash va kompaniyaning avtotransport vositalarini tushirish joylariga kirishiga ruxsat berish.

**4.2.3. Ishlatilganda barcha bo'sh idishlar (kapsulalar)ni qaytarilishini ta'minlash.**

Kompaniya yorlig'i bo'lgan 18,9 litr hajmdagi kapsula qaytarilmagan taqdirda Buyurtmachi Kompaniyaga har bir 18,9 litrli kapsula uchun 50 000 (ellik ming) so'm miqdorida jarima to'laydi.

4.2.4. Bo'shan kapsulalarni boshqa maqsadlarda ishlatmaslik yoki ularni begona moddalar va suvlar bilan to'ldirmaslik va himoya gologrammasi hamda "Eleven" yorlig'i mavjud bo'lgan holda qabul qilingan kapsulalarni huddi shunday olingan holatda Kompaniyaga qaytarish.

4.2.5. Suvni saqlash sharotlariga qo'yiladigan talablarga rioya qilish (saqlash harorati +5 dan +20 C gacha), to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri ta'siridan saqlash.

4.2.6. Ushbu Ommaviy oferta bekor qilingan yoki to'xtatilgan taqdirda, Buyurtmachi 18,9 litrli kapsulalarni ushbu Ommaviy oferta kelishuvini bekor qilingan yoki to'xtatilgan kundan boshlab 3 (uch) kalender kun ichida qaytarishi shart.

4.2.7. 18,9 litrli kapsulaning yo'qolishi yoki shikastlangani natijasida ulardan keyin foydalanishning imkonи bo'lмаган taqdirda, Buyurtmachi 18,9 litrli kapsulaning narxini ushbu Ommaviy ofertaning ajralmas qismi bo'lgan qabul qilish va topshirish dalolatnomasida ko'rsatilgan 18,9 litr hajmdagi har bir kapsulaning narxiga asosan 3 (uch) kalender kuni ichida qoplashi shart. 18,9 litrli kapsulaning tasodifiy shikastlanishi xavfini Buyurtmachi o'z zimmasiga oladi.

## 5. Kompaniyaning javobgarligi

5.1. Kompaniya O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq xizmatlar va mahsulotlarning sifatlari uchun javobgardir. Xizmat va mahsulot sifati yuzasidan shikoyatlar bo'yicha **+99833110-00-11, +99855151-00-11** telefon raqamlari orqali xabar berish yoki [https://t.me/ELEVEN\\_ichimlik\\_suvi](https://t.me/ELEVEN_ichimlik_suvi) manziliga yuborish mumkin.

5.2. Mahsulotlar sifati gigienik sertifikatlari (14.12.2020 y. № 311518) va muvofiqlik sertifikatlari (11.01.2021 y. №2477678) bilan tasdiqlangan.

## 6. Fors-major

6.1. Ushbu Ommaviy oferta qabul qilinganidan keyin vujudga kelgan Ommaviy ofertaga oid majburiyatlarning to'liq yoki qisman bajarilmaganligi, agar ana shunday bajarmaslik suv toshqini, yongnin, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, urush yoki harbiy harakatlar, davlat organlarining harakatlari kabi engib bo'lmas kuch oqibatida sodir etilgan bo'lsa, tomonlar hech qaysi biri javobgar hisoblanmaydi. Ushbu xolatlar vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadi.

## 7. O'zgartirishlar kiritish va bekor qilish tartibi

7.1. Ommaviy ofertaga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) kiritish Kompaniya tomonidan [www.elevenwater.uz](http://www.elevenwater.uz) saytida e'lon qilish orqali, ularning kuchga kiritilishi muddatini ko'rsatgan holda bir tomonlama amalga oshiriladi. Foydalanuvchi ko'rsatilgan o'zgartirishlarga rozi bo'lmasa, Eleven xizmatlaridan foydalanmasligi yoki o'rnatilgan tartibda Ommaviy ofertani bekor qilishi mumkin.

7.2. Ommaviy oferta muddati belgilanmagan bo'lib, tomonlarning tashabbusi bilan istalgan vaqtida bekor qilinishi mumkin.

7.3. Ommaviy oferta quyidagi holatlarda bekor qilinishi mumkin:

7.3.2. Kompaniya tomonidan:

- Buyurtmachi tomonidan ushbu Ommaviy oferta shartlari buzilgan taqdirda;

- **Buyurtmachi har 2 oyda bir martadan kam suvg'a buyurtma bergan bo'lsa;**

- nazorat, huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlarining tegishli xabarnomasi yoxud noqonuniy tarzda naqdashtirish xolatlari yuzasidan ma'lumot asosida.

7.3.3. **Buyurtmachi** tomonidan;

- Kompaniya tomonidan ushbu Ommaviy oferta shartlari buzilgan taqdirda.

7.4. Ommaviy oferta muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, tomonlar ushbu Ommaviy oferta bo'yicha Ommaviy ofertaning amal qilish muddati davomida yuzaga kelgan majburiyatlardan ozod etilmaydi.

## 8. Uchinchi shaxs tomonidan to'lovlarni amalga oshirish tartibi

8.1. Olingen mahsulotlar uchun Buyurtmachi o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilmagan taqdirda, to'lovlar uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunday vaziyat yuzaga kelganda, uchinchi shaxs to'langan mablag'larni Buyurtmachidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qayta talab qilish huquqiga ega.

Bu xolatda, uchinchi shaxs tomonidan qoplanib berilgan summa Buyurtmachining barcha bank hisob varaqalaridan va barcha bank kartalaridan (kelgusida yangi ochiladiganlardan ham) barcha to'lov tizimlarini foydalangan holda AKSEPTSIZ tarzda uchinchi shaxs tomonidan echib olinadi.

#### **9. Nizolarni hal etish**

9.1. Ommaviy ofertani bajarish borasida vujudga kelgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan ko'rib chiqiladi va hal etiladi.

9.2. Kompaniyaga nisbatan e'tirozlar yozma shaklda taqdim etiladi va amaldagi qonunchilikda belgilangan muddat ichida ko'rib chiqilishi shart. Tomonlar o'zaro kelishuvga erishmagan taqdirda barcha nizolar Kompaniya joylashgan hududdagi vakolatli organ tarafidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqiladi.

#### **10. Kompaniya manzili va rekvizitlari**

**" ELEVEN BOTTLERS " MChJ**

**Manzil: Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumani, "Havaslik" MFY, S.Ayniy ko'chasi, 111-uy.**

**Telefon: +99833 110 00 11,**

**H/r: 20208 000 405 198 216 001**

**Bank: "Sanoatqurilishbank" Bosh Ofisi Amaliyat Boshqarmasi**

**MFO: 00440**

**INN: 310 808 349      OKED: 11070**

**Call-markaz - +998 55 151 00 11**